Boshlang'ich sinf o'quvchilarida moslashuvchan kompetensiyalarni shakllantirishning metodik asoslari....	710
Nuriddinova Diyora Isaqali qizi	
Mediasavodxonlik vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari.....	714
Pardayev Asror Ikromovich	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi	718
Qayumova Mahfuzaxon Alisher qizi	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini jadidlarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirish metodikasi (Temurbeklar maktablari misolida)	724
Quldashev Murodjon G'aniyevich	
Bugungi voleybolda to'p uzatish texnikasi va aniqligini 13–14 yoshdan boshlab aylanish harakatlari ta'sirida shakllantirish afzalligi	727
Rejapov O'tkirbek G'ayratjon o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bolalar o'yin folklorini o'rgatishda tolerantlikni rivojlantirishning metodik usullari va texnologiyalari.....	733
Ro'ziboyeva Madina Salimovna	
Pedagogik muloqot tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari	737
Ro'zimatova Maxpuza	
Intellektual qadriyatlarning talaba yoshlar aksiologik hayotiy pozitsiyasini shakllantirishdagi roli	743
Rustam Latipov Mamadaliyevich	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda AI-platformalarni integratsiyalashning amaliy mexanizmlari	747
Rustamov Kamoliddin Ziyodillo o'g'li	
Maktab biologiya ta'limida individuallashtirish texnologiyasidan foydalanish metodikasi.....	754
Savutova Malohat Erkinovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning turizm sohasiga bo'lgan munosabatini o'rganishning ijtimoiy-pedagogik metodikasi.....	760
Shodiyorov Rustam Xasan o'g'li	
Bo'lajak harbiy xizmatchilarda deontologik yondashuvlar asosida raqamli muloqot madaniyatini shakllantirish.....	764
Soyibnazarov Baxtiyor Abdunazar o'g'li	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida umumiy yer bilimi fanidan amaliy mashg'ulotlar tizimini kasbiy faoliyatga yo'naltirishning dolzarb masalalari.....	770
Sultanova N. B.	
Ijtimoiy reabilitatsiyani amalga oshirishda tibbiy-psixokorreksion maslahat ishlar mazmuni.....	775
Suvanqulova Shaxnoza Karimqulovna	
Blokcheyn texnologiyasining ta'lim jarayonida qo'llanilishi va imkoniyatlari	780
Suyumov Jo'rabek Yunusaliyevich	



Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari	783
<i>Tojibayeva Nazokatxon</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni	787
<i>To'xtasinova Nigoraxon Azizxon qizi</i>	
Oliy o'quv yurtlarida analitik kimyo fanini o'qitishning samaradorlik ko'rsatkichlari	793
<i>Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi</i>	
Antroposentrik yondashuv asosida o'quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish yo'llari	796
<i>Xamidova Nigora Ibrohimovna</i>	
Обучение говорению на русском языке абитуриентов с помощью настольных игр	800
<i>Абдулахадова Шохид</i>	
Особенности педагогической деятельности и их виды	803
<i>Мавжудова Ш. С., Мирходжаева Д.</i>	
Развитие критического мышления младших школьников на уроках читательской грамотности	808
<i>Мухаммадиева Марифат Мурод кизи</i>	
Искусство подбора слов: стилистические и семантические возможности перифраз	811
<i>Юлдашева Дилноза Бекмуродовна</i>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda refleksiv tafakkurni rivojlantirishning vazifalari va pedagogik imkoniyatlari	815
<i>Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna</i>	
The Human Factor in AI-Mediated English Instruction: Balancing Technology and Pedagogical Expertise.....	818
<i>Ikramova Aziza Aminovna</i>	
Madaniyat tushunchasi va uni xorijiy til o'qitishda o'rganish zarurati.....	823
<i>Ma'murova Farangiz Ne'matovna</i>	
O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish: zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ularning samaradorligi	827
<i>Ostonova Ma'mura Ulug'bek qizi</i>	
Ko'zi ojiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari	830
<i>Qarshiboyev Asliddin</i>	
Farzand tarbiyasida ota-onaning pedagogik-psixologik malakalari	834
<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashning tashkiliy-ilmiy asoslari	839
<i>Xolmatov Pardaboy Qoraboevich</i>	
Методология типологического и сравнительного анализа детского фольклора	844
<i>Азмиева Э. Э.</i>	
Мaktabgacha ta'lim elementar matematik tushunchalarni rivojlantirish zarurati.....	851
<i>Xoldarova F. M.</i>	
Multimadaniy muhitda pedagoglarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari	854
<i>Gulyamova Nafisa Burikulovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishda oila va mahallaning roli	858
<i>Rizayeva Xusniya Ubayevna</i>	
Raqamli pedagogika: zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalar roli	861
<i>Maxmudova Dilnoza Xaytmirzaevna</i>	
Badiiy adabiyot – maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik dunyoqarashni shakllantiruvchi omil sifatida... ..	865
<i>Xujamberdiyeva Shahnoza Kupaysinovna</i>	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'lim islohatlar bosqichida	868
<i>Boyqulov Azamat Maxram o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlarining menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi va uni mahalliy sharoitda qo'llash imkoniyatlari	871
<i>Maxamadaliyeva Ezoza Rustamxo'ja qizi</i>	
Oliy badiy pedagogik ta'lim muassasasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida illyustrativ rasm ishlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlashning mazmuni	875
<i>Sobirov Sarvar Tursunmurotovich</i>	



PEDAGOGIK JARAYONDA KOGNITIV RIVOJLANISHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA BU FAOLIYATNI RIVOJLANTIRUVCHI INTERAKTIV METODLAR VA TEXNOLOGIYALAR

Abdiraimova Gulrux Samad qizi

Qarshi xalqaro universiteti

“Ijtimoiy gumanitar fanlar” kafedrası dotsenti v.b.

ORCID: 0009-0007-7766-6336

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik jarayonda kognitiv rivojlanishga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy, psixologik, pedagogik va texnologik omillar tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotda insonning bilish faoliyatini faollashtirishda interaktiv metodlar va zamonaviy ta'lim texnologiyalarining roli ilmiy-nazariy asosda yoritilgan. Muallif kognitiv rivojlanishning asosiy psixologik komponentlari – idrok, tafakkur, diqqat, xotira va ijodiy fikrlashning uzviy bog'liqligini ko'rsatib beradi hamda ularni rivojlantirishda o'qituvchining metodik mahorati ahamiyatini asoslaydi. Maqolada “Aqliy hujum”, “Fishbone”, “Case-study”, “Mind Mapping” kabi interaktiv metodlarning kognitiv faoliyatni rag'batlantirishdagi samaradorligi, shuningdek, AKT, gamifikatsiya, VR/AR texnologiyalari va STEAM yondashuvlarining integratsion imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari o'quvchilarda metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish, mantiqiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish jarayonida interaktiv muhit yaratishning muhimligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: kognitiv rivojlanish, interaktiv metodlar, pedagogik texnologiyalar, metakognitiv strategiyalar, ta'lim jarayoni, STEAM, gamifikatsiya.

Abstract: This article provides a systematic analysis of the social, psychological, pedagogical, and technological factors influencing cognitive development in the educational process. The study reveals the scientific and theoretical foundations of the role of interactive methods and modern educational technologies in activating human cognitive activity. The author demonstrates the interconnection between the main psychological components of cognitive development – perception, thinking, attention, memory, and creative imagination – and substantiates the significance of the teacher's methodological competence in fostering these abilities. The article analyzes the effectiveness of interactive methods such as “Brainstorming”, “Fishbone”, “Case-study,” and “Mind Mapping” in stimulating cognitive activity, as well as the integrative potential of ICT, gamification, VR/AR technologies, and the STEAM approach. The research results confirm the importance of creating an interactive learning environment for developing metacognitive competencies, enhancing logical reasoning, and fostering students' creative thinking.

Key words: cognitive development, interactive methods, pedagogical technologies, metacognitive strategies, educational process, STEAM, gamification.

Аннотация: В данной статье системно анализируются социальные, психологические, педагогические и технологические факторы, влияющие на когнитивное развитие в педагогическом процессе. В исследовании раскрыта научно-теоретическая основа роли интерактивных методов и современных образовательных технологий в активизации познавательной деятельности человека. Автор показывает взаимосвязь основных психологических компонентов когнитивного развития – восприятия, мышления, внимания, памяти и творческого воображения, а также обосновывает значение методического мастерства преподавателя в их формировании. В статье проанализирована эффективность интерактивных методов, таких как “Мозговой штурм”, “Fishbone”, “Case-study”, “Mind Mapping”, в стимулировании когнитивной активности, а также рассмотрены интеграционные возможности ИКТ, геймификации, технологий VR/AR и подхода STEAM. Результаты исследования подтверждают важность создания интерактивной образовательной среды для формирования метакогнитивных компетенций, развития логического и творческого мышления учащихся.

Ключевые слова: когнитивное развитие, интерактивные методы, педагогические технологии, метакогнитивные стратегии, образовательный процесс, STEAM, геймификация.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida inson tafakkurini faollashtirish, kognitiv (bilish) faoliyatni rivojlantirish hamda shaxsning intellektual salohiyatini yuksaltirish masalasi pedagogika fanining markaziy muammolaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. XXI asrda ta'lim jarayoni an'anaviy yodlash va reproduktiv yondashuvlardan interaktiv, refleksiv hamda kognitiv faoliyatga asoslangan o'qitish modellari sari o'zgarmoqda. Bu esa o'quvchi shaxsining faolligini oshirish, mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, tahlil qilish va yangi bilimlarni integratsiyalash qobiliyatlarini shakllantirishni talab etadi. Kognitiv rivojlanish jarayoni inson ongining faol ishlashi bilan uzviy bog'liq bo'lib, idrok, xotira, tafakkur, e'tibor va tasavvur kabi psixik jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonlarning samarali shakllanishi, o'z navbatida, o'quvchilarning bilimlarni ongli o'zlashtirishi va ularni amaliyotga tatbiq etish darajasini belgilaydi. Shuning uchun ham pedagogik jarayonda kognitiv faoliyatni rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy, psixologik, pedagogik va texnologik omillarni chuqur o'rganish zamonaviy ta'limning dolzarb vazifasidir.

Bugungi kunda ta'lim amaliyotida interaktiv metodlar – "Aqliy hujum", "Klaster", "Fishbone", "Case-study", "Mind Mapping", "Debatlar", "Conceptual mapping" kabi usullar keng qo'llanilib, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda muhim o'rin tutmoqda. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), gamifikatsiya elementlari, VR/AR texnologiyalari va STEAM yondashuvining joriy etilishi o'quv jarayonining innovatsion, integratsion va kognitiv yo'nalishda takomillashuviga xizmat qilmoqda. Mazkur tadqiqotda aynan shu omillar tizimi va ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, kognitiv rivojlanishni jadallashtiruvchi metodik yondashuvlar, interaktiv texnologiyalar hamda o'qituvchining metodik mahorati o'rta-sidagi uzviy aloqadorlik ilmiy-nazariy asosda yoritiladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, u nafaqat kognitiv jarayonlarning tabiati va pedagogik mexanizmlarini o'rganadi, balki zamonaviy o'qitish strategiyalarini takomillash-tirish orqali o'quvchining intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kognitiv rivojlanish nazariyasining ilmiy asosi J. Piaget (Ж. Пиаже)ning "Aqliy rivojlanish bosqichlari" konsepsiyasiga tayanadi. Olim bolaning bilish faoliyati ketma-ket, mantiqan izchil bosqichlar orqali shakllanishini asoslab, kognitiv jarayonlarni ijtimoiy tajriba bilan bog'liq deb ko'rsatadi. L. S. Vygotskiy (Л. С. Выготский) esa "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi orqali bilim egallashda ijtimoiy muloqot, o'qituvchi va o'quvchi o'rta-sidagi kognitiv aloqadorlikning hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi. D. Bruner (J. Bruner) o'qitish jarayonida "kognitiv konstruktivizm" tamoyilini ilgari surib, o'quvchilarning o'z faol ishtiroki, qidiruv faoliyati va tajriba asosida o'rganish zarurligini isbotlagan. X. Gardner (H. Gardner)ning "Ko'p intellektlar nazariyasi" esa kognitiv rivojlanishning individual farqlanishiga asoslanadi, ya'ni har bir o'quvchining bilish salohiyati o'ziga xos tarzda shakllanadi. So'nggi yillarda neyropedagogika sohasida olib borilgan tadqiqotlar (E. Jensen, M. Posner, D. Sousa va boshqalar) kognitiv jarayonlarning miya faoliyati bilan uzviy bog'liqligini ilmiy jihatdan isbotlab, interaktiv metod va texnologiyalar orqali neyron faollikni rag'batlantirish ta'lim samaradorligini oshirishini ko'rsatdi.

MDH mamlakatlari olimlarining ishlari. Rossiyalik pedagog va psixolog olimlar – N. I. Vershinina, V. I. Bogdanov, G. V. Erofeeva, O. N. Tretyakova va boshqalar kognitiv faoliyatni rivojlantirishda o'qitishning uzviylik va izchillik tamoyillariga e'tibor qaratishgan. Ularning fikricha, o'quvchining tafakkur tizimi bosqichma-bosqich murakkablashib boradi, shuning uchun o'qitish metodlari ham kognitiv bosqichlarga moslashtirilgan bo'lishi lozim. A. A. Verbitskiy "kontekstli o'qitish" nazariyasida o'quv faoliyatining mazmuni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'langan taqdirdagina samarali kognitiv rivojlanish yuz berishini asoslagan. M. I. Mahmudov esa muammoli o'qitishning psixologik mexanizmlarini o'rganib, bilish jarayonlarini faollashtirishda mustaqil izlanish, mantiqiy tahlil va ijodiy tafakkur elementlarining o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. O'zbekistonlik olimlar – A. Abduqodirov, N. To'raqulova, Z. Nishonova, Sh. Xasanboeva, M. Ochilov, A. Haydarov, N. Ismoilova, G. Usmonova va boshqalar kognitiv faoliyatni rivojlantirishni milliy ta'lim kontekstida o'rganib kelishmoqda. Ular interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion yondashuvlar o'quvchilar tafakkurini faollashtirishda hal qiluvchi rol o'ynashini asoslaydi. Shuningdek, N. M. Mirzayev va D. A. Yo'ldoshevalarning ishlanmalarida ta'limda gamifikatsiya va raqamli texnologiyalar asosida kognitiv faollikni rag'batlantirish masalalari yoritilgan. Kognitiv rivojlanish jarayoniga o'qituvchi shaxsining metodik mahorati, dars jarayonidagi interfaol muhit, shuningdek, ta'lim resurslarining multimodal xususiyatlari sezilarli ta'sir ko'rsatishi ilmiy asosda ko'rsatib berilgan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kognitiv rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar tizimi. Pedagogik jarayonda kognitiv rivojlanish ko'plab o'zaro bog'liq omillar majmuasi ta'sirida shakllanadi. Ushbu omillarni shartli ravishda ijtimoiy, psixologik, pedagogik va texnologik omillar tizimiga ajratish mumkin.

- 1. Ijtimoiy omillar** – o'quvchi shaxsining ijtimoiy muhitda shakllanishini belgilovchi elementlardir. Oila, maktab jamoasi, o'qituvchi, tengdoshlar guruhi va ommaviy axborot vositalari o'quvchining kognitiv motivatsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim muhitida ijtimoiy muloqotning samarali tashkil etilishi, o'zaro hurmat va hamkorlik tamoyillarining ustuvorligi o'quvchining bilish faolligini oshiradi.
- 2. Psixologik omillar** – diqqat, idrok, xotira, tafakkur va hissiy-intellektual barqarorlik kabi kognitiv jarayonlarning tabiiy xususiyatlari bilan bog'liqdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchining diqqatni boshqarish darajasi va ishchi xotiraning sig'imi o'qitishning natijaviyligini belgilovchi eng muhim psixologik parametrlar sirasiga kiradi. Shuningdek, motivatsiya, o'z-o'zini baholash va metakognitiv kuzatuv (self-monitoring) jarayonlari o'quvchi bilish faoliyatining sifat ko'rsatkichlarini aniqlaydi.
- 3. Pedagogik omillar** – o'qituvchining metodik mahorati, darsning didaktik strukturasi to'g'ri tashkil etishi, muammoli o'qitish, refleksiya va tahlilni yo'lga qo'yish bilan chambarchas bog'liq. Kognitiv faoliyatni rivojlantirishda o'qituvchining asosiy roli – o'quvchining o'z fikrini mustaqil shakllantirish, tahlil qilish va asoslash ko'nikmalarini faollashtirishdan iborat.
- 4. Texnologik omillar** – zamonaviy AKT, raqamli resurslar, virtual haqiqat (VR/AR) texnologiyalari, STEAM yondashuvlari, gamifikatsiya vositalari va interaktiv platformalarning o'quv jarayoniga integratsiyalashuvini o'z ichiga oladi. Ushbu texnologiyalar o'quvchining bilish jarayoniga sezilarli turtki beradi, o'z-o'zini boshqarish va reflektiv o'rganish ko'nikmalarini kuchaytiradi. Shunday qilib, kognitiv rivojlanish jarayoni ko'p omilli, tizimli va integrativ hodisa bo'lib, u insonning bilish, emotsional hamda ijtimoiy tajribalarining o'zaro uzviy ta'siri natijasida shakllanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kognitiv faoliyatni rivojlantirishda interaktiv metodlarning o'rni. Interaktiv metodlar o'qitish jarayonida o'quvchining faol ishtirokini ta'minlovchi, bilimni o'zlashtirishni reproduktiv emas, balki konstruktiv asosda amalga oshiruvchi samarali vositalardir. Ular o'quvchini bilim iste'molchisi emas, balki bilim yaratuvchisi sifatida shakllantiradi.

- **“Aqliy hujum (Brainstorming)” metodi** – o'quvchilarda ijodiy tafakkur, tezkor fikrlash va tahliliy xulosalash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu metodda o'quvchilar muammoni hal etish uchun imkon qadar ko'p g'oyalar ishlab chiqadilar, keyinchalik ular tahlil qilinib, amaliy jihatdan eng maqbullari tanlanadi.
- **“Fishbone” (sabab-natija diagrammasi)** – tahliliy fikrlash va sababiy bog'lanishlarni aniqlashni o'rgatadi. O'quvchilar biror hodisaning asosiy sabablarini aniqlash orqali mantiqiy tahlil va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradilar.
- **“Case-study” metodi** – real hayotiy vaziyatlar asosida muammolarni tahlil qilish va yechim ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'lib, bu metod tafakkurning amaliy, kontekstual va refleksiv komponentlarini birlashtiradi.
- **“Mind Mapping” (aqliy xarita)** – axborotlarni tizimlashtirish, asosiy g'oyalar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishni aniqlash, xotira va idrokni kuchaytirish uchun samarali vositadir.
- **“Gamifikatsiya”** – o'yin elementlarini ta'lim jarayoniga kiritish orqali motivatsiyani oshiradi, raqobat va hamkorlikni uyg'unlashtiradi hamda kognitiv faollikni rag'batlantiradi. Interaktiv metodlar qo'llanilganda o'quvchi subyekti o'z fikrini erkin ifoda etadi, muloqotga kirishadi va ijodiy tafakkur orqali yangi bilimlarni shakllantiradi. Bu jarayonda o'qituvchi faollikni boshqaruvchi moderator sifatida ishtirok etadi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va kognitiv rivojlanish. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) o'qitish jarayonini shaxsga yo'naltirilgan va adaptiv tizimga aylantirdi. Raqamli platformalar, onlayn test tizimlari, videoresurslar va virtual laboratoriyalar o'quvchining idrok, tasavvur va refleksiya jarayonlarini faollashtiradi. STEAM ta'limi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) kognitiv faoliyatni integratsion asosda rivojlantiradi. Fanlararo bog'liqlik orqali o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliy muammolarni hal etishga tatbiq

etishni o'rganadilar. VR/AR texnologiyalari o'quvchilarga murakkab tushunchalarni fazoviy-idrokiy darajada his qilish imkonini beradi. Bu texnologiyalar idrok, xotira va emotsional anglash jarayonlarini bir vaqtning o'zida faollashtiradi, bu esa bilimning chuqur va barqaror shakllanishiga olib keladi. Metakognitiv texnologiyalar o'quvchini o'z o'rganish jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va baholashga o'rgatadi. Bunday yondashuv kognitiv rivojlanishni yuqori darajaga ko'taradi, chunki o'quvchi o'z fikrlash faoliyatining subyekti bo'lishni o'rganadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, interaktiv metodlar va texnologiyalarni tizimli qo'llash o'quvchilarning kognitiv faoliyatida sezilarli o'sishni ta'minlaydi. Eksperimental guruh ishtirokchilarining diqqat barqarorligi, ishchi xotira hajmi, mantiqiy fikrlash darajasi va ijodiy tafakkur ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan 25–30% yuqori natijani ko'rsatdi. Tahlil jarayonida o'quvchilarda quyidagi o'zgarishlar kuzatildi: muammoli vaziyatni anglash va tahlil qilish qobiliyati oshdi; mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasi shakllandi; metakognitiv kuzatuv (self-regulation) va refleksiya madaniyati yuksaldi; o'qishga ichki motivatsiya va ishtirok darajasi ortdi. Shuningdek, o'qituvchining metodik mahorati va darsda interaktiv muhit yaratish ko'nikmasi o'quvchilarning kognitiv faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy determinant sifatida qayd etildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pedagogik jarayonda kognitiv rivojlanish – bu faqat bilish faoliyati emas, balki shaxsning ijodiy, hissiy va ijtimoiy o'sishining uzviy qismidir. Interaktiv metodlar va zamonaviy texnologiyalar o'quvchini o'rganish jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirib, uning tafakkur tizimida tahliliy, refleksiv va ijodiy komponentlarning uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, kognitiv faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan interaktiv ta'lim – ta'lim sifatini oshirish, mustaqil fikrlaydigan, innovatsion salohiyatga ega shaxsni shakllantirishning asosiy shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son 08-10-2019. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmoni. <https://lex.uz/docs/-4545884>
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. Vazirlar Mahkamasining 157-son 27-03-2024. "Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori.
4. "Управление познавательной деятельностью школьников в процессе обучения". Москва: "Педагогика", 1988.
5. Коротаева, Е. В. Активизация познавательной деятельности учащихся. Екатеринбург, 1995. – 83 с.
6. Зимняя, И. А. Педагогическая психология. Москва: "Логос", 2005.
7. Ausubel, D. (1968). Educational Psychology: A Cognitive View. New York: Holt, Rinehart & Winston.
8. Gagné, R. (1985). The Conditions of Learning and Theory of Instruction. New York: CBS College Publishing.
9. Gardner, H. (2006). Multiple Intelligences: New Horizons in Theory and Practice. Basic Books.
10. Mayer, R. E. (2009). Multimedia Learning. Cambridge University Press.
11. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
12. Shodmonov, Sh. Sh. (2022). Pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar. Toshkent: TDPU nashriyoti.
13. Norkulov, B. (2020). Oliy ta'limda interfaol ta'lim texnologiyalari. Toshkent: Fan va texnologiya.
14. Mavlyanova, N., Raxmankulova. Umumiy pedagogika. Toshkent: Voris nashriyoti, 2013.
15. Marzano, R. J. (2007). The Art and Science of Teaching. ASCD.
16. Shokirova, D. (2023). "Kognitiv yondashuv asosida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari." O'zbekiston pedagogik axborotnomasi, №2.
17. Uzviylik va izchillik prinsiplari asosida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. <http://mamun.uz/uz/page/56>, 2022.
18. Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish metodikasi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining O'zbekiston til va madaniyat jurnali, ISSN 2181-922X, 2023.
19. Nurturing critical thinkers: approaches and activities for building critical thinking skills in primary students. International Journal of Artificial Intelligence, vol. 4, no. 02 (2024): Volume 04, Issue 02. Academicpublishers.org, 2024-05-04.
20. Abdiraimova, G. (2025). Kognitiv faoliyat tushunchasining mazmun-mohiyati va uning psixologik-pedagogik asoslari. Pedagogik mahorat jurnali, 6-son.
21. Abdiraimova, G. (2025). Kognitiv rivojlanishga uzviylik va izchillik tamoyillarining ta'siri va pedagogik tadqiqotlarda nazariy asoslarning tahlili. Pedagogik mahorat jurnali, 8-son.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.